

O'QUV DASTUR PASPORTI

O'quv dastur uzluksiz tibbiy va farmasevtik ta'lim muvofiqlashtiruvchi kengashning _2025 yil 14 avgustdagi №_MMO- 241 sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan.

Amal qilish muddati 2027 yil gacha

Ta'lim muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi		
Kafedra/ bo'lim	Bolalik davri asab kasalliklari		
O'quv dastur nomi	“Irsiy kasalliklarning klinik diagnostik jixatlari”		
O'qish turi	Mavzuiy malaka oshirish		
O'quv dastur muallifi/ mualliflari	Shamansurov Sh.Sh., Gulyamova M.K., Saidazizova Sh.X., Gulyamova D.N.		
Siklning umumiy soati	144 kredit		
Siklda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar			
 t.f.d., professor Shamansurov Sh.Sh.	 t.f.n., dosent Gulyamova M.K.	 t.f.d., dosent Saidazizova Sh.X.	 t.f.n., dosent Gulyamova D.N.
Maqsad	Xozirgi zamonda bolalar orasida o'lim va nogironlik ko'rsatkichlarini irsiy kasalliklarning hisobiga doimiy oshib borishi, zamonaviy shifokorning ushbu kasalliklarni bilishiga va o'rganishiga extiyoji bilan belgilanadi. Shuning uchun xozirgi davr talablariga muvofiq, ushbu dastur irsiy kasalliklar mavzusidagi asosiy bilimlarni yangilash, tizimli bilimlarni shakllantirish, kasbiy faoliyatni tizimlashtirish va chuqurlashtirishga qaratilgan.		
Siklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingent	Stasionar, ambulatoriya muassasalari OSh va boshqa bolalar tor mutaxassislari		

Sikl vazifalari	- tug'ma va irsiy patologiyalarni aniqlash, ularning klinik xususiyatlari, diagnostikasi, prognostik ahamiyati va rivojlanishning morfogenetik variantlariga (mikroanomaliyalarni) oid bilimlarini takomillashtirish; - tinglovchilarni bolalar orasida keng tarkalgan va kam uchraydigan irsiy kasalliklarni tashxislashning asosiy usullari bo'yicha bilimlarini chuqurlashtirish va takomillashtirish; - irsiyatga oid bo'lgan kasalliklarni halqaro tasnif bo'yicha to'g'ri taxlil qilish va davlat standartlariga asoslangan xolda ularga tegishli bo'lgan davolash rejalarini mustaxkamlash va yangilash; - zamonaviy tibbiyotda tibbiy genetika maslaxati va prenatal diagnostika usullari, irsiy kasalliklarni profilaktika ko'nikmalarini takomillashtirish.
Sikl tarkibi	1.MODUL: Tibbiy genetikaning zamonaviy nazariy asoslari 2.MODUL:Bosh miya tug'ma nuqsonlarining xavf omillari va sabablari 3.MODUL:Asab tizimining modda almashinuvi bilan bog'liq nasl kasalliklari 4.MODUL: Nerv -mushak kasalliklarining zamonaviy klinik-genetik tushunchalari. 5.MODUL: Irsiy neyroektodermal displaziyalar 6.MODUL: Asab tizimining nasl degenerativ kasalliklarini diagnostikasiga zamonaviy yondashuv. 7.MODUL: Irsiy epilepsiya shakllarining genetik diagnostikasi. 8.MODUL: Xromosom kasalliklarni erta diagnostikasi 9.MODUL:Asab tizimining tugma va irsiy kasalliklarni diagnostikasi va davolashda zamonaviy texnologiyalarning imkoniyatlari

O'qish bazalari

1. Shaxar 1 son bolalar klinik shifoxonasi



2. U.K. Qurbonov nomidagi bolalar psixonevrologik shifoxonasi



3. Respublika "Ona va bola skriningi" markazi

